

BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QUVCHILARNI MEHNATGA PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH

Qarshiyeva Shaxnoza Doniyor qizi

GulDU 2-kurs pedagogika-psixalogiya magistiri

ANNOTATSIYA

Mehnat tarbiyasida yutuqlarga erishishning to‘g‘ri yo‘li uning g‘oyaviy yo‘nalishi. U boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mehnatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni shakllantirishi kerak. Binobarin, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z olidilariga qo‘yilgan vazifalarni faqat tushunishi bilan cheklanmay, balki yosh xususiyatlariga muvofiq o‘z mehnatlari bilan bu vazifani bajarishda faol ishtirok etishlari lozim.

Kalit so‘zlar: bog‘cha, tajriba, aql, iroda, mehnat, o‘quvchilar, o‘quvchilar, bolalar, yutuq va kamchiliklar.

Oilada mehnatga o‘rgatilgan bolalar bog‘chada va mакtabda o‘zlariga berilgan mehnat topshiriqlarini erkin va oson bajaradilar. Oilada hyech qanday topshiriqni bajarmagan bolalarga mehnat tarbiysi berish ancha qiyin bo‘ladi, ular uchun arzimagan narsalarni ham kattalar bajaradilar. Bunday bolalarni mehnatga o‘rgatish mushkul ish ular mehnat qilishdan qutulishga, uni boshqalar zimmasiga yuklab qo‘yishga intiladilar. Ba’zi otalar, ko‘pincha onalar o‘z bolalarining mehnatga jalb etilishidan norozi bo‘ladilar. Mehnat o‘qishga halaqit beradi. Bolalarni qiynab qo‘yadi deb biladilar, ular o‘z bolalari “qora” ishda, og‘ir mehnatda ishtirok qilishini hohlamaydilar. Bunday oilalardan majbur etilgan taqdirdagina ishyoqmaslik bilan mehnat qiladigan va yigitlar etishib chiqadi. O‘quvchilarni mehnatga psixologik jihatdan tayyorlashda ularning aql va irodasiga emas, balki his-tuyg‘ulariga ta’sir etish nazarda tutiladi. Bunda badiiy adabiyot va san’at nihoyatda katta ro‘l o‘ynaydi.

Yosh bolalarni mehnatga psixologik tayyorlashda imkonlari bor joylarda kishilarning mehnat qahramonliklari tasvirlangan suratlarni namoyish qilish va bu bilan bolalarda mehnatda o‘zini ko‘rsatish istagini uyg‘otish yaxshi natija beradi. Shu maqsadda kishilarning mehnat jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini ifodalovchi badiiy filmlar, fan va texnika yangiliklariga bag‘ishlangan televideeniye eshittirishlaridan, gazeta-jurnal maqolalaridan foydalanish, ularning ta’sirini kuchaytirish uchun maxsus muhokama va munozaralar o‘tkazish lozim.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xulq-atvoriga faqat idrok qilingan narsagina emas, balki o‘ylangan his qilingan narsalar ta’sir etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnatga psixologik tayyorlash mohiyati va vositalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mehnatining samaradorligiga erishish uchun o‘quvchi-o‘smirlar ongida mehnat tufayli vujudga keladigan narsa timsolini aniq va ravshan gavdalantirishga erishish kerak. Mehnat faoliyati va murakkab yoki oddiy bo‘lishdan qat’i nazar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mehnatning maqsad va vazifalari aniq tushuntirilishi kerak. Bolalar mehnat natijalarini yaxshi tushunishlari uchun mehnatga psixologik jihatdan tayyorlashning birinchi va muhim sharti ularni yoshligidan boshlab, kelajakda qilinadigan mehnati maqsadlarini anglab olishga o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ulg‘ayib borgan sayin ularning mehnat tajribalari tobora kengayib va chuqurlashib boradi. Mehnatning shaxsiy va ijtimoiy hayotda qanday ro‘l o‘ynashini aniqroq tushunib, zarurligi va ahamiyatini anglab boradilar. O‘smirlik, ayniqsa, yoshlik chog‘larida mehnatning ro‘li hamda ahamiyatini tushunishi umumiy yo‘sinda bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mehnat faoliyatining dastlabki kurtaklari ularning yuqori sinf o‘quvchilari mehnatiga qiziqish va unda ishtirok etishga intilishida namoyon bo‘ladi. Mehnat topshiriqlarini bajarishda qo‘lga kiritilgan yutuqlar mehnatga ehtirosli munosabatni asta-sekin o‘zgartiradi, uning butun jamiyat hamda har bir inson hayotida tutgan o‘rnini, har bir inson tomonidan mehnatga qo‘yilgan talablarini yaxshi anglashda yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnatga psixologik jihatdan tayyorlash uni jismoniy yoki aqliy, murakkab yoki oddiy bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyat uchun zarur har qanday mehnatga hurmat ruhida tarbiyalashga asoslanadi. Mehnat qilish hyech vaqt uyat emasligi, shu bilan birga inson hamisha o‘z mehnati bilan go‘zalligi haqidagi fikr yosh avlod ongiga singdirilishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kelgusidagi mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun mактабда butun o‘quv yili davomida ularning mehnatini yo‘lga qo‘yish muhim ro‘l o‘ynaydi. Psixologiyada isbotlanganidek, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish qanchalik erta boshlansa, shunchalik tez shakllanadi.

Boshlang‘ich sinflarning mehnat darslarida mehnatini yo‘lga qo‘yish zarur sharti ustaxonada va dalalarda ishlashda o‘quvchilarni qiziqtiradigan qimmatli natijalarga erishish. Bolalar o‘z qo‘llari bilan yasagan buyumlar o‘zlariga va boshqalarga foydali ekanligini anglaganlaridagina qilgan mehnatlaridan mammun bo‘ladilar.

Mehnat tarbiyasida yutuqlarga erishishning muhim vositalaridan biri mehnat quro‘llari, ashyolar va mehnat me’yori o‘quvchilarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarga mosligi. Buni isbotlash uchun uzoq vaqt kuzatish olib borish shart emas. Og‘ir bolg‘a, uzun arra va egov, katta qaychi, belkurak va xaskash bilan ishlash kichkintoy, zaif va o‘g‘il va qizlarni tezda charchatib qo‘yadi. Istagan natijaga erisha olmagan bolalarda mehnatga ixlos qolmaydi. Shunday ish sharoitida yangi topshiriqlar berilganda bolalar ularni bajarishdan qochishga intiladilar. Ish quro‘llari boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yoshi va jinsiga yarasha bo‘lsagina mehnat topshiriqlari bajarilishi mumkin ekanligini isbotlashga hojat bo‘lmasa kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- | | |
|----------------|---|
| 1.E.G.G‘oziyev | “ <i>Bolalar psixalogiya</i> ” Toshkent -1997 |
| 2.V.M.Karimova | “ <i>Psixalogiya</i> ” Toshkent-Sharq -2002 |
| 3.M.M.Mamatov | “ <i>O‘siprin psixalogiyasi</i> ” Toshkent-1992 |